



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA OLISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEXANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'LJALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH, YER RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH	276
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	



CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH, YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH

Ramazonov Zafar Ulug'bekovich

Xalqaro innovatsion universiteti stajyor-o'qituvchisi

E-mail: zafarmznv@gmail.com

ORCID: 0009-0007-4952-6352

Annotatsiya: Maqolada 2009–2025-yillar statistik ma'lumotlari asosida hududda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, uning qishloq xo'jaligi umumiy hajmidagi ulushi hamda yer resurslari (paxta maydonlari, ozuqa ekinlari, tomorqa yerlari va yaylovlar) bilan ta'minlanganlik darajasi tahlil qilingan. Chorvachilik mahsulotlari hajmi bilan aholining iste'mol xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlik baholanib, ozuqa bazasining cheklanganligi sharoitida ishlab chiqarishning aholi xarid qobiliyatiga mosligini ta'minlash yo'nalishlari asoslangan. Yaylov maydonlarining qisqarishi va ozuqa ekinlari maydonining deyarli o'zgarmasligi sharoitida chorvachilikni intensiv rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: chorvachilik, ozuqa ekinlari, yaylovlar, tomorqa xo'jaliklari, paxta maydonlari, aholi xarajatlari, xarid qobiliyati, oziq-ovqat ta'minoti, intensiv rivojlantirish.

Abstract: The article analyzes the dynamics of livestock production in the region, its share in the total volume of agricultural production, and the level of provision with land resources (cotton fields, forage crops, household plots, and pastures) based on statistical data for 2009–2025. The relationship between the volume of livestock products and household consumption expenditures is assessed, and directions for ensuring that production corresponds to the purchasing power of the population under conditions of limited feed resources are substantiated. Proposals for the intensive development of livestock farming are put forward in the context of declining pasture areas and an almost unchanged area under forage crops.

Keywords: livestock farming, forage crops, pastures, household farms, cotton fields, household expenditures, purchasing power, food security, intensive development.

Аннотация: В статье на основе статистических данных за 2009–2025 годы проанализированы динамика производства продукции животноводства в регионе, ее доля в общем объеме сельскохозяйственного производства, а также уровень обеспеченности земельными ресурсами (площадями под хлопчатником, кормовыми культурами, приусадебными землями и пастбищами). Оценена взаимосвязь между объемом продукции животноводства и потребительскими расходами населения, обоснованы направления обеспечения соответствия производства покупательной способности населения в условиях ограниченности кормовой базы. В условиях сокращения площадей пастбищ и практически неизменной площади кормовых культур предложены меры по интенсивному развитию животноводства.

Ключевые слова: животноводство, кормовые культуры, пастбища, приусадебные хозяйства, площади под хлопчатником, расходы населения, покупательная способность, продовольственное обеспечение, интенсивное развитие.

KIRISH

Chorvachilik qishloq xo'jaligining aholi kundalik iste'moli bilan bevosita bog'liq bo'lgan yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Go'sht, sut, tuxum kabi mahsulotlar aholi oziq-ovqat savatining oqsilga boy qismini tashkil etib, ularning narxi va taklifi aholining real xarid qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning barqaror o'sishini ta'minlash va uni aholi daromadlari va xarajatlari dinamikasiga moslashtirish agrar siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Chorvachilikning rivojlanishi bevosita yer resurslari — ozuqa ekinlari maydonlari, yaylovlar hamda aholining tomorqa yerlaridan samarali foydalanishga



bog'liq. Paxta maydonlarining o'zgarishi ham, yer taqsimoti orqali, ozuqa bazasiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, ishlab chiqarish, yer resurslari va aholi xarid qobiliyati o'rtasidagi muvofiqlikni tizimli baholash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chorvachilik tarmog'i rivoji va oziq-ovqat ta'minoti masalalari jahon iqtisodiy adabiyotida keng yoritilgan. K. Delgado va hammualiflar [1] rivojlanayotgan mamlakatlarda daromadlar o'sishi va urbanizatsiya ta'sirida chorvachilik mahsulotlariga talabning jadal oshishini «chorvachilik inqilobi» sifatida ta'riflab, taklifni talabga moslashtirish zarurligini asoslagan. T. V. Shuls [2] an'anaviy qishloq xo'jaligini transformatsiya qilishda investitsiyalar va inson kapitalining hal qiluvchi rolini ko'rsatgan bo'lsa, A. Sen [3] oziq-ovqatdan foydalanish imkoniyati aholining real daromatlari orqali belgilanishini ta'kidlagan. J. fon Braun [4] oziq-ovqat narxlari o'zgaruvchanligi kam ta'minlangan aholi qatlamlarining xarid qobiliyatiga eng kuchli ta'sir ko'rsatishini empirik dalillar bilan asoslagan. Mahalliy olimlardan T. X. Farmonov [5] chorvachilikda xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish va ozuqa bazasini mustahkamlash masalalarini tadqiq etgan. R. X. Ergashev [6] chorvachilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish va tarmoq iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini o'rgangan. B. T. Salimov [7] qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash uslubiyotini ishlab chiqqan bo'lsa, N. S. Xushmatov [8] dehqon va tomorqa xo'jaliklarining oziq-ovqat ta'minotidagi rolini asoslagan. Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, chorvachilik ishlab chiqarishi, yer-ozuqa bazasi va aholi xarid qobiliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yagona tizim sifatida, uzoq muddatli hududiy ma'lumotlar asosida miqdoriy baholash masalasi hali to'liq yechimini topmagan.

Xorijiy va mahalliy adabiyotlarni umumlashtirish natijasida tadqiqotning nazariy asosi sifatida quyidagi yondashuv qabul qilindi: chorvachilik mahsulotlariga talab aholi daromatlari va iste'mol xarajatlari dinamikasi orqali shakllanadi; taklif esa yer-ozuqa bazasi, mulkchilik shakllari va intensiv omillar bilan chegaralanadi. Moslik — talab pul ifodasining o'sish sur'ati bilan jon boshiga taklif o'sish sur'atining mutanosibli hamda ular o'rtasidagi statistik bog'liqlik zichligi orqali baholanadi. Bunday yondashuv ishlab chiqarish va iste'mol tomonlarini yagona tahliliy doiraga birlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning axborot bazasini 2009–2025-yillar bo'yicha chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd so'm), qishloq xo'jaligi umumiy mahsuloti, paxta ekin maydoni (ming ga), ozuqa ekinlari maydoni (ga), aholining tomorqa yerlari (ming ga), yaylovlar (ming ga), doimiy aholi soni hamda aholining o'rtacha umumiy daromatlari va xarajatlari tashkil etdi. Tahlilda dinamik qatorlar usuli, tarkibiy (ulush) tahlil, jon boshiga ko'rsatkichlarni hisoblash, korrelyatsion tahlil va qiyosiy baholash usullari qo'llanildi. Chorvachilikning xarid qobiliyatiga mosligi ikki mezon bo'yicha baholandi: (1) jon boshiga chorvachilik mahsuloti hajmining o'sish sur'ati aholi iste'mol xarajatlari o'sish sur'ati bilan taqqoslash; (2) chorvachilik hajmi bilan aholi xarajatlari o'rtasidagi korrelyatsiya zichligi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil davrida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1256,2 mlrd so'mdan 25852,5 mlrd so'mga yetib, 20,6 barobar oshdi; o'rtacha yillik o'sish sur'ati 20,8 foizni tashkil etdi va bu qishloq xo'jaligi umumiy hajmining o'sish sur'atidan (19,9%) yuqori bo'ldi. Natijada chorvachilikning qishloq xo'jaligi umumiy mahsulotidagi ulushi 2009-yildagi 54,3 foizdan 2017-yilda 58,2 foizgacha, 2025-yilda esa 61,2 foizgacha oshdi. Bu tarmoq tarkibida chorvachilikning yetakchi mavqei mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi (1-jadval).

Jon boshiga chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2009-yildagi 542,5 ming so'mdan 2025-yilda 7103,7 ming so'mga yetib, 13,1 barobar oshdi. Ayni davrda aholining o'rtacha umumiy iste'mol xarajatlari 10345,5 ming so'mdan 55789,9 ming so'mga, ya'ni 5,4 barobar o'sdi. Demak, jon boshiga chorvachilik mahsuloti taklifining o'sish sur'ati aholi xarajatlari (talab hajmining pul ifodasi) o'sishidan yuqori bo'lib, fizik ta'minot nuqtai nazaridan ishlab chiqarish aholi talabi ortidan ulgurib bormoqda.

Korrelyatsion tahlil chorvachilik mahsulotlari hajmi bilan aholining o'rtacha umumiy xarajatlari o'rtasida juda kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Bu iste'mol xarajatlarning o'sishi, avvalo, oziq-ovqat xarajatlari orqali, chorvachilik mahsulotlariga talabni bevosita kengaytirishini va tarmoq ishlab chiqarishi ushbu talab dinamikasiga yuqori darajada mos ravishda shakllanayotganini bildiradi. Shu ma'noda, Delgado va boshqalar ta'riflagan «chorvachilik inqilobi» tendensiyasi tahlil qilinayotgan hudud misolida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda (1-jadval).



1-jadval

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishi va yer resurslari dinamikasi¹

Yil	Chorvachilik mahsulotlari, mlrd so'm	Ulushi, %	Jon boshiga, ming so'm	Ozuqa ekinlari, ga	Yaylovlar, ming ga	Tomorqa yerlari, ming ga	Paxta maydoni, ming ga
2009	1256,2	54,3	542	24979	1504,1	75,4	172,9
2010	1328,4	49,5	541	25029	1504,2	75,4	171,3
2011	1384,4	50,3	529	25079	1496,2	78,2	168,2
2012	2252,6	53,2	827	25129	1482,1	78,2	162,2
2013	2984,3	54,8	1074	25179	1501,2	79,1	162,6
2014	3474,1	54,5	1227	25229	1456,8	79,7	164,8
2015	4434,7	57,7	1532	25249	1423,2	78,1	164,9
2016	5041,5	55,5	1704	25269	1410,3	78,1	164,7
2017	6325,3	58,2	2091	25289	1410,2	80,2	160,5
2018	7755,6	54,0	2511	25309	1408,3	80,2	153,4
2019	10250,1	59,6	3256	25324	1398,1	80,2	144,8
2020	11955,0	60,0	3721	25339	1401,1	80,2	137,2
2021	14541,5	61,2	4433	25354	1407,1	80,2	138,7
2022	16943,5	59,9	5080	25369	1214,1	72,9	136,0
2023	18974,3	58,9	5567	25379	1224,0	72,9	144,0
2024	23548,9	61,2	6762	25389	1406,5	80,2	166,2
2025	25852,5	61,2	7104	25399	1314,3	80,2	168,2

Yer resurslari tahlili muhim rivojlanish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Ozuqa ekinlari maydoni 17 yil davomida atigi 24979 ga dan 25399 ga gacha, ya'ni 1,7 foizga oshgan bo'lsa-da, ishlab chiqarish 20 barobardan ziyod o'sgan. Yaylov maydonlari, aksincha, 1504,1 ming ga dan 1314,3 ming ga gacha (12,6 foizga) o'zgargan, ayniqsa, 2022–2023-yillarda 1214–1224 ming ga ko'rsatkichlar qayd etilgan. Aholining tomorqa yerlari 75,4–80,2 ming ga oralig'ida barqaror saqlanib, chorvachilik mahsulotlarining salmoqli qismi aynan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda yetishtirilishini hisobga olganda, tomorqa yerlaridan to'liq va samarali foydalanilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Paxta maydonlarining 172,9 ming ga dan 2020-yilda 137,2 ming ga gacha qisqarib, 2024–2025-yillarda yana 166–168 ming ga gacha tiklanishi yer balansida ozuqa ekinlari uchun raqobatni kuchaytirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Yer resurslaridan foydalanish intensivligini baholash uchun ozuqa maydoni birligiga to'g'ri keladigan chorvachilik mahsuloti hajmi hisoblandi. Ushbu ko'rsatkich 2009-yildagi 50,3 mln so'm/ga dan 2025-yilda 1017,9 mln so'm/ga gacha oshgan bo'lib, nominal ifodada 20 barobardan ziyod o'sishni bildiradi va tarmoqdagi intensivlashuv jarayonining miqyosini ko'rsatadi. Yuqoridagi holat chorvachilikdagi o'sish asosan ekstensiv (yer) omillar hisobiga emas, balki mahsuldorlikni oshirish, bosh sonini ko'paytirish va narx omili hisobiga ta'minlanganini ko'rsatadi. Ozuqa bazasining deyarli o'zgarmasligi sharoitida ishlab chiqarishning bunday jadal o'sishi ozuqa tannarxini shakllantirish, bu esa pirovardida chorvachilik mahsulotlari narxining shakllanishi orqali aholi xarid qobiliyatini qo'llab-quvvatlash masalasining ahamiyatini oshiradi. Daromadlarning xarajatlarni qoplash koeffitsienti 2025-yilda 1,19 ni tashkil etgani holda, xarajalar ulushining yuqoriligi (daromadlarning 83,9 foizi) aholining narx o'zgarishlariga sezgirligini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi (2-jadval).

1 Manba: taqdim etilgan statistik ma'lumotlar asosida muallif hisob-kitoblari.



2-jadval
Chorvachilikda resurs intensivligi ko'rsatkichlari²

Yil	1 ga ozuqa maydoniga mahsulot, mln so'm	ming ga yaylovga mahsulot, mlrd so'm	ming ga tomorqaga mahsulot, mlrd so'm	Xarajatlarning daromadga ulushi, %
2009	50,3	0,84	16,7	82,3
2013	118,5	1,99	37,7	90,0
2017	250,1	4,49	78,9	90,0
2021	573,5	10,33	181,3	90,0
2023	747,6	15,50	260,3	88,4
2025	1017,9	19,67	322,4	83,9

Aholi xarid qobiliyati nuqtai nazaridan yana bir muhim jihat — jon boshiga chorvachilik mahsulotining aholi o'rtacha xarajatlariga nisbati. Ushbu nisbat 2009-yilda 5,2 foizni, 2017-yilda 11,6 foizni, 2025-yilda esa 12,7 foizni tashkil etdi. Nisbatning izchil oshib borishi mahalliy chorvachilik mahsuloti taklifining aholi iste'mol salohiyatiga nisbatan kengayib borayotganini, ya'ni ichki bozorning importga bog'liqligini kamaytirish va narx barqarorligini ta'minlash uchun resurs yaratilayotganini ko'rsatadi. Biroq bu imkoniyat ozuqa bazasi barqarorligi ta'minlangan taqdirdagina real natijaga aylanadi.

Natijalar T. V. Shulsning an'anaviy agrar tizimni transformatsiya qilishda intensiv omillarga investitsiya kiritish hal qiluvchi ahamiyatga ega, degan xulosasini tasdiqlaydi: yer resurslari cheklangan sharoitda chorvachilikning barqaror o'sishini faqat ozuqa ekinlari hosildorligini oshirish, naslchilikni yaxshilash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ta'minlash mumkin. J. fon Braunning narx o'zgaruvchanligi xususidagi xulosalaridan kelib chiqib, chorvachilik mahsulotlari bozorida narx barqarorligini ta'minlash kam ta'minlangan aholi qatlamlari xarid qobiliyatini himoya qilishning asosiy vositasi sifatida qaralishi lozim. A. Senning yondashuvi esa taklif va talab muvofiqligini daromadlar siyosati bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot quyidagi xulosalarni berish imkonini berdi. Birinchidan, 2009–2025-yillarda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 20,6 barobar o'sib, tarmoqning qishloq xo'jaligidagi ulushi 61,2 foizga yetdi; jon boshiga ishlab chiqarishning o'sishi aholi xarajatlari o'sishidan yuqori bo'lib, ishlab chiqarish aholi talabiga fizik jihatdan mos ravishda rivojlanmoqda. Ikkinchidan, chorvachilik hajmi bilan aholi iste'mol xarajatlari o'rtasidagi juda kuchli bog'liqlik tarmoqning xarid qobiliyati dinamikasiga yuqori mosligini tasdiqlaydi. Uchinchidan, ozuqa ekinlari maydonining deyarli o'zgarmasligi va yaylovlarning 12,6 foizga qisqarishi tarmoq o'sishining resurs barqarorligiga tahdid soluvchi omil bo'lib, uzoq muddatda narx orqali aholi xarid qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Takliflar sifatida quyidagilar ilgari suriladi: ozuqa ekinlari hosildorligini oshirish va takroriy ekinlardan foydalanishni kengaytirish orqali yer birligidan olinadigan ozuqa hajmini ko'paytirish; yaylovlarning degradatsiyasini oldini olish, ularni sug'orish va navbatlab foydalanish tizimini joriy etish; tomorqa va dehqon xo'jaliklarini naslli mol, ozuqa va veterinariya xizmatlari bilan ta'minlashni rag'batlantirish; chorvachilik mahsulotlari bozorida narx monitoringi va maqsadli ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish; tarmoqqa intensiv texnologiyalar (bordoqichilik komplekslari, aralash ozuqa ishlab chiqarish) bo'yicha investitsiyalarni jalb etish. Mazkur chora-tadbirlar ishlab chiqarishning aholi xarid qobiliyatiga uzoq muddatli mosligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kelgusi tadqiqotlarda chorvachilik mahsulotlari bo'yicha fizik hajm indekslari va iste'mol narxlari indekslarini jalb etgan holda real taklif va real talab muvozanatini baholash, shuningdek, aholining daromad guruhlari kesimida chorvachilik mahsulotlariga talab elastikligini aniqlash maqsadga muvofiq. Bu hududiy agrar siyosatni yanada aniq manzilli shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Delgado C., Rosegrant M., Steinfeld H., Ehui S., Courbois C. Livestock to 2020: The Next Food Revolution. – Washington, D.C.: IFPRI, 1999. – 72 p.

2 Manba: muallif hisob-kitoblari.



2. Schultz T.W. Transforming Traditional Agriculture. – New Haven: Yale University Press, 1964. – 212 p.
3. Sen A. Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. – Oxford: Clarendon Press, 1981. – 257 p.
4. von Braun J. The Food Crisis Isn't Over // Nature. – 2008. – Vol. 456. – P. 701.
5. Farmonov T.X. Chorvachilikda xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish yo'nalishlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2017.
6. Ergashev R.X. Chorvachilik mahsulotlari bozorini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Salimov B.T. Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligi. – Toshkent: TDIU, 2015.
8. Xushmatov N.S. Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining oziq-ovqat ta'minotidagi roli. – Toshkent: Agroiqtisodiyot, 2021.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>